

---

## “BESH TASHABBUS OLIMPIADASI”

Farg’ona viloyatida ommaviy sportni rivojlantirish, yoshlarni sportga kengroq jalb qilishda o’tkazilayotgan “Besh tashabbus olimpiadasi” musobaqasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur nufuzli bellashuvning joriy yilgi 1-mavsumida 434875 nafar ishtirokchi qatnashgan bo’lsa, 2-mavsumda bu ko’rsatkich 449224 tani tashkil etdi. 1-mavsumda farg’onalik sportsevarlar respublika bosqichida 33 ta medalni qo’lga kiritishga muvaffaq bo’lishdi. Ularning 13 tasi oltin, 10 tasi kumush va yana 10 tasi bronza medallarni tashkil etdi. “Besh tashabbus” olimpiadasining ikkinchi mavsumida 9 ta sport turidan qatnashgan viloyatimiz yoshlari hozirda respublika bosqichida ishtirok etish uchun tayyorgarlik ko’rishmoqda.



**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Instagram](#) | [Youtube](#) | [Telegram](#)

2023-11-23 10:04:10